



UDK:091

Nigora ZAKIROVA,
Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti dotsenti v.b
E-mail: nigora0777@gmail.com

F.f.d G.Masharipova taqrizi asosida

YOSHLAR MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHDA OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yosh avlodning milliy o'zligini anglashda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Oila birinchi tarbiya maskani sifatida, mahalla esa ijtimoiy muhit yaratuvchisi sifatida, ta'lim muassasalari esa ilmiy-nazariy asoslovchi va ma'naviy targ'ibot markazi sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu institutlar o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritgan taqdirda, yoshlar orasida milliy qadriyatlarga sodiqlik, tarixiy xotira va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda samarali natijalarga erishish mumkinligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Milliy o'zlik, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, hamkorlik, tarbiya, yoshlar, qadriyatlar.

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ СЕМЬИ, МАХАЛЛИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ОСОЗНАНИИ МОЛОДЕЖЬЮ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается важность взаимодействия семьи, махалли и образовательных учреждений в формировании национального самосознания молодежи. Семья выступает как первый институт воспитания, махалля — как социальная среда, а образовательные учреждения — как научно-теоретическая и духовно-просветительская основа. Подчеркивается, что только при скоординированной работе этих институтов можно эффективно формировать у молодежи верность национальным ценностям, историческую память и гражданскую позицию.

Ключевые слова: Национальное самосознание, семья, махалля, образовательные учреждения, сотрудничество, воспитание, молодежь, ценности.

THE COOPERATION OF FAMILY, COMMUNITY (MAHALLA), AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN YOUTH'S UNDERSTANDING OF NATIONAL IDENTITY

Annotation

This article explores the importance of collaboration between the family, community (mahalla), and educational institutions in shaping the national identity of youth. The family is seen as the primary institution of upbringing, the mahalla as a creator of social environment, and educational institutions as centers of academic and spiritual development. The article argues that effective cooperation among these institutions can foster loyalty to national values, historical memory, and a strong civic identity among young people.

Key words: National identity, family, mahalla, educational institutions, cooperation, upbringing, youth, values.

Kirish. Dunyoda hamjamiyatidagi ko'plab ma'naviy va axloqiy eroziya yoshlarning immuniteti etarli darajada emasligi bilan bog'liq. Binobarin, axloqiy muvozanatning buzilishi tuzatib bo'lmay ulkan fojialarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan ham yoshlarni an'anaviy, ruhiy va milliy ong, milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimi asosida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tizimli tarbiya ishlarini olib borishda oila, mahalla, ta'lim muassasalarining roli, hamda ular o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, yosh avlodni milliylik, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyat, urf-odat, an'analar ruhida tarbiyalashga doir dastlabki ko'nikmalar aynan oila, mahalla va ta'lim muassasalari orqali shakllantiriladi. Xo'sh, bugungi kunda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining yoshlarni tarbiyalash borasidagi ta'siri etarli darajadami? Paragrafda ushbu savolga javob berishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimida tarbiyalashning omillari ko'p. Ayniqsa, oila, mahalla va ta'lim muassasalarining bu boradagi o'rni, ta'siri beqiyosdir. Azal-azaldan oila, mahalla va ta'lim muassasalari tarbiya omili sifatida ko'rib kelingan. Milliy-

ma'naviy qadriyatlarga yoshlarning ijobiy munosabati, ularni keyingi avlodga sof holatda etkazishda barchaning birdek xizmat qilishi kabi qarashlar va munosabatlar ham aynan shu omillar ta'sirida shakllanadi. Ammo bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy o'zlikni anglash, uni saqlab qolish bilan bog'liq ishlarga to'siq bo'ladigan bir qator salbiy ta'sirlar shakllanib bormoqda. Axborotlashgan jamiyat «... Yoshlarda jizzakilik, axloqsizlik, sabrsizlik, irodasizlik, hayotdagi kichkina qiyinchiliklar oldida tez taslim bo'lish, dangasalik, moddiy ashyolarga mahliyo bo'lib, ilm olish, kitob mutolaa qilish, muayyan soha mutaxassisi bo'lish, kashfiyotlar qilish, foydali yangiliklardan xabardor bo'lish kabi ijobiy amaliy ishlardan yiroqlashish kabi salbiy illatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Bunday qarashlar va munosabatlarning shakllanishi ham bugungi kundagi axborotlashgan jamiyat sharoitida internet, ommaviy axborot vositalari – televedenie hamda radio dasturlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli engil-elpi, saviyasiz, ayrim noto'g'ri ma'lumotlarning asosi o'rganilmasdan turib tarqatilayotganligi ham sabab bo'lmoqda» [2]. Yoshlar ruhiyatidagi bunday salbiy illatlarning ildiz otib, yana ham chuqurroq o'mashib olishi bevosita axborot

manbalari orqali targ'ib qilinayotgan engil-elpi, saviyasiz, bachkana, ma'nosiz axborotlarni iste'mol qilish bilan ham bog'liq. Eng achinarli tomoni shunday mazmundagi axborotlarni "iste'molchi"lari yoshlar orasida soat sayin oshib bormoqda. Yoshi katta avlodning bu holatga befarqligi ham kuchaymoqda. Yoki kattalar tomonidan berilayotgan tanbehlar natija bermayotir. Bizningcha kattalar tomonidan berilayotgan tanbehlarining natija bermayotgani quyidagi omillar bilan bog'liq: birinchidan, yoshi katta avlod yoshlarni milliylik ruhiyatida tarbiya topishi uchun kurashsa, yoshlarning esa zamonaviylik sari intilishlari kuchayibborishi;

ikkinchidan, yoshi katta avlod o'zlarining hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, yoshlar etangi hayotda muammolar girdobida qolgan qoqilmasin, qiynalmasin degan ma'noda milliylikni saqlash va uni yoshlar ongiga singdirish borasida harakat qilsalar, yoshlar esa hayotiy tajribasi hali yo'qligini tan olmasdan, yoshi kattalarni "yoshlarni tushunmaslik"da ayblab, o'zlari bilgan ishlarni qilish, mustaqil yashashni afzal bilishlari;

uchinchidan, yoshi katta avlod vakillari zamonaviy axborot texnologiyadan foydalanish ko'nikmalari yoshlarga qaraganda ancha sust ekanligi, yoshlarni axborot manbalaridan olayotgan ma'lumotlarini sinchiklab tekshirish imkoniyatlarining yo'qligi;

to'rtinchidan, yoshlar ongida o'tmishda o'tgan avlodlar merosidan foydalanib, o'z hayot yo'llarini tanlashdan ko'ra Internet tarmoqlari orqali tanilgan, "zamonaviy qahramonlar", aktyor va aktrisalari, kino qahramonlari, bloggerlar kabilar hayotini o'rganish va ularga taqlid qilish asosida yashash ishtiyoqining oshib borayotganligi. Chunki, tarmoqlar orqali moddiyatga qiziqishni oshiruvchi, oson pul topishni o'rgatuvchi yoki o'z shaxsiy hayotidagi "farovonlikni" ko'z-ko'z qiluvchi shaxslar yoshlar ongini egallab olgan – desak mubolag'a bo'lmaydi.

Beshinchidan, asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga sayqallangan, sof shaklda o'tib kelayotgan milli-ma'naviy qadriyatlarga nisbatan bugungi kunda paydo bo'lib, o'zida milliylikka mutlaqo zid bo'lgan, begona hatti-harakatlarni aks ettirgan va o'zga jamiyatlar hayotiga targ'ib qilinayotgan "zamonaviy qadriyatlar" nufuzining ortib borayotganligi. Yoshlarning esa ana shu qadriyatlarni qabul qilishi va uning talablari asosida yashashga intilish hissining kuchayib borayotganligi bilan bog'liq. Milliylik bilan qarama-qarshi qo'yilgan ushbu "zamonaviylik"da ustunlik ikkinchi tarafda bo'layotganligi masalani yana ham jiddiylashtirmoqda. Mana shu kabi omillar yoshlar tarbiyasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni tizimli ravishda yo'lga qo'yish shartligini ko'rsatadi. Bu borada mamlakatimizda ijobiy ishlar qilinmoqda.

Muhokama. «Oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda» [1]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarning tarbiyasi va etarli ta'lim olishi har doim ham dolzarb ahamiyatga ega masala sifatida qaralib kelingan. Bugun ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanishi an'anaviy, inson psixikasiga ta'sir qiladigan qadriyatlarga asoslangan oilaviy munosabatlarga zarar etkazmoqda. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri aytganda, oila qurayotgan tomonlar ijtimoiy tarmoqdan, ya'ni, feysbuk, instagram va boshqa tarmoqlar orqali o'zlari qiziqqan, o'z xohish-istaklariga mos keladigan odamlarni xuddi shu makondan qidiradilar. Bundan tashqari, tarmoqlar orqali

«mashhur» bo'lgan insonlarga ergashish, ularni o'zlari uchun «etakchi» sifatida bilishi, «maslahat» va «nasihat»lariga amal qilishga intilishlari, ularning hayotini kuzatish va o'zlarida shu hayot tarzini qurishga intilish, taqlidchilik kabi harakatlar o'zlikni anglash bilan bog'liq muammolarga yo'l ochayotir. Bu tendensiya oilaning boshqa a'zolariga ham tarqaladi, milliy qadriyatlarga asoslangan oilaviy munosabatlarga putur etkazadi. Shunday qilib, oila makon sifatida qoladi, lekin undagi qadriyatlar parchalana boshlaydi. Qadriyatlar unitilgan makonda o'sish va o'zgarish, milliy-ma'naviy taraqqiyot jarayonlari sodir bo'lmaydi. Asta-sekin millat hayoti o'zga millatlar madaniyati yoki begona madaniyatlar bilan «boyib» boradi. Bu esa millatni kelajakda millat sifatida yashab qolishini xavf ostida qoldiradi.

Natija. Bola ulg'aygan sari ota-onasiga o'z hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida ko'p gapirmaydi, axborot makonidan olingan va ko'rilgan narsa haqida bahslashmaydi va muhokama qilinmaydi, bolalar ham, ota-onalar ham bunga unchalik qiziqmaydilar. Masalan, 6 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalarning 76 %i televizorda ko'rganlarni ota-onalari bilan muhokama qilishadi. 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarning atigi 53 %i o'z yangiliklarini ota-onalari bilan baham ko'radi. Ular orasida qizlar ustuvor[3]. O'g'il bolalar past ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. YA'ni, o'g'il bolalar ota-onasiga ko'p ma'lumot aytmaydi, ular muhokamadan qochadi. E.G.Surkan bergan statistik ma'lumotlarga ko'ra, «ota-onalar o'g'il bolalarga qaraganda qizlarga ko'proq e'tibor berishadi. Ota-onalarning 73 %i qizlarning maktabdagi uy vazifalari, mashg'ulotlarda qatnashishi kabi qiziqishlariga e'tibor beradi. Ota-onalarning atigi 63 %i esa o'g'il bolalarga qiziqadi. Bundan tashqari, ota-onalar qizlarining nima bilan shug'ullanishi va bo'sh vaqtini qaerda o'tkazishiga to'liq e'tibor berishsa, ular o'g'il bolalarga kamroq qiziqish bildiradilar. Bu erda ota-onalar qiz bola va o'g'il bolaning axborot savodxonligini bilganida, bu tengsizlik aniq ko'rinadi» [4]. Rossiyada o'tkazilgan ushbu tadqiqot natijalarining ayrim jihatlari o'zbek xalqi mentaliteda sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlar va muammolarga ham to'g'ri keladi. Ota-onalar turmush mashaqqatlari hal qilish bilan bog'liq masalalarga o'z e'tiborlarini qaratishlari natijasida farzandlar tarbiyasi ikkinchi darajadagi masalaga aylanib borayotgan holatlar ko'payib bormoqda.

Yoshlarning o'sib-ulg'ayishi, ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq hayotiy yo'li oilaviy munosabatlar bilan birga ijtimoiy muhit bilan ham chambarchas bog'liq. «Bir bolaga etti mahalla ota-ona» degan hikmatli so'zlar zamirida ulkan ma'no bor. Yoshlarning tarbiyasi, axloqi, xulqi va odobi uchun nafaqat uning atrofidagi yaqinlari, shu bilan bir qatorda mahallada yashayotgan bracha insonlar birdek mas'ul hisoblanishi millatimiz uchun azaliy qadriyat. Lekin axborotlashgan jamiyat ta'lim va tarbiya maskani hisoblangan mahalla omiliga ham ta'sir o'tkazmay qolgani yo'q. Axborotlashgan jamiyat orqali kishalarda shakllanib borayotgan ayrim illatlar yoshlar tarbiyasida mahallaning o'rni va nufuziga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Umuman olganda, yoshlar ulg'aygani sayin oila, mahalla va ta'lim muassasalarida olinadigan ma'naviy ozuqa olishga qaraganda axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter va mobil o'yinlar va videoroliklarga ko'proq vaqtlarini sarflashadi[4]. Bundan tashqari, yoshlar qiziquvchan, hissiyotga tez beriluvchan hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasiga to'la ega emasliklari, qilayotgan ishlarining oqibatlari haqida o'ylamasliklari hamda mas'uliyatni to'la his etmasliklari ma'lum. Shu bois ota-ona farzandlari bilan yaqin munosabatda bo'lsa, ularning muammolarini ochiqdan-ochiq so'rab, ularning ko'z o'ngida erkin bo'lishiga imkon yaratrsa, bola ham ota-onaga ochiq

bo'ladi. U o'z fikrlaridagi bezovta qiluvchi narsalar haqida gapirishni, muammolarini muhokama qilishni va ota-onasi ko'rsatgan yo'ldan borishni o'rganadi. Ota-onalar bolalarning xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus eslatmalardan xabardor bo'lishlari kerak. Xavfsizlikni ta'minlash ota-onalarning mas'uliyatidir. Shuning uchun ham ota-onalar farzandida internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, uning undan qanday foydalanishini uning nazorati ostida ushlab turish vazifasidir.

Har qanday yoshlar uchun qonun bilan ta'qiqlangan pornografiya, zo'ravonlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilishni targ'ib qiladigan sahnalar aks etgan videoroliklar, reklamalar, internet saytlari, bot kanallar xavflidir. Bundan tashqari, kompyuter va mobil o'yinlar, qimor o'yinlari, forumlar va ijtimoiy tarmoqlardan haddan ziyod ortiqcha foydalanish ham bolaning jismoniy va ruhiy salomatligiga tahdid soladi. Internetda firibgarlar juda ko'p. Ular bolalarni aldab, ongiga jiddiy zarba berishlari mumkin. Haqiqiy hayotda aldangan bolalar tavakkal qilishdan tortinadi va kelajakka erkin qadam qo'yishda qiynaladi. Axborot xavfsizligini ta'minlash jarayonida oddiy narsalarga e'tibor berilmaydi. Zero, «ota-onaning yaxshi tarbiyasi bolalarning gullab-yashnashi uchun iliq va mehrli muhitni ta'minlaydi. Bunday muhit muloqotni yaxshilaydigan, bolalar va ota-onalarni bir-biriga yaqinlashtiradigan munosabatlarni o'rnatish uchun zarurdir»[5].

Aksariat ota-onalarning o'z farzandlarining qanday kompyuter o'yinlarini o'ynashini, qaysi kompyuter klublari va internet-kafelariga tashrif buyurishini, nima bilan shug'ullanishini kuzatmaydi yoki kamdan-kam kuzatadi. Texnika vositalardan foydalanishda ham chegara va meyor bo'lishi shart. Misol uchun, ko'pchilik kattalar oddiy smartfondan foydalanishni o'smirlardan o'rganadilar. Shuning uchun ko'pchilik ota-onalar farzandlari internetdan qanday

foydalanishini yoki u erda hamma narsa qanday amalga oshirilayotganini tushunishmaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, bolalarning kelajagi va axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida ota-onalarga zararli audio-video, ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlarining zararli tomonlari va ma'lumotlari haqida ma'lumot berib borish zarur. Ota-onalar zamonaviy texnikalarning salbiy tomonlari va oqibatlar haqida tushunchalarga ega bo'lishi, xavf-xatarlar qanday ekanligini bilishlari kerak. Umuman olganda, axborot makonida yoshlarning tarbiyasiga ota-ona, qarindosh-urug'lar, mahalla, OAV, ta'lim muassasalari subyektlari birdek mas'ul.

Yoshlarning o'z-o'zini anglashning muhim qismi bu bilim olishdir. Yaxshi, sifatli ta'lim olgan shaxs o'z-o'zini anglash jarayonini tashqi ta'sirlar ostida emas, balki olgan bilimi, tarbiyasi, tahliliy ko'nikmalari bilan o'tadi. Milliy davlatimiz taraqqiyoti va muvaffaqiyatlari yosh avlodning milliy o'zligini shakllantirish, fuqaromizning vatanparvar inson bo'lib shakllanishiga ham turtki bo'ladi. Milliy o'zlikni anglash, milliy - ma'naviy qadriyatlarga sadoqat, vatanparvarlikdan boshlanadi. Shu boisdan ham yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa. Zamonaviy yoshlar har qanday jamiyatda bebaho bo'lgan mehr-oqibat, adolat, sabr-toqat kabi insoniy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'ysa, katta yutuq bo'ladi. Millatning buguni va kelajagi faol yoshlar qo'lida desak, millatning ma'naviy qadriyatlarini o'ziga singdirgan avlodgina mamlakat kelajagini belgilab beradi. O'z kuch va bilimini yurt ravnaqi yo'lida sarflaydigan yoshlardan iborat jamiyat o'z oldiga qo'ygan maqsadlari tomon qadamlari jadallashadi. Oila, mahalla va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash milliy o'zlikni anglashda muhim ekanligini fuqarolar ongiga singdirish, o'zaro hamkorlik yo'llarini kuchaytirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги 2017 йил 28 июль ПҚ-3160 сонли Қарори.
2. Авлакулов А.. Техноген цивилизациянинг ижтимоий-сиёсий ва маънавий тараққиётида намоён бўлиш жараёнлари. Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. Тошкент: ЎзМУ, 2023. -62 б.
3. Цуркан Е.Г. Социокультурная динамика и интернет-технологии: социально-философский анализ: диссертация ... кандидата философских наук. - Москва, 2021. - 244 с.
4. Алексеев Д.И. Национальное самосознание в структуре межэтнических отношений: Отечественный опыт: диссертация ... кандидата философских наук. - Москва, 2004. - 140 с.
5. Ҳишам Алталиб, Абдул Ҳамид Абу Сулайман, Омар Алталиб. Ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатлар: Фарзанд тарбияси учун қўлланма (Uzbek). Бишкек, 2023. Бешинчи боб. - 4-б.